

OSHIQ ADABIYOTIDAGI MAQOL-TERMALAR TAHLILI

Xojiyeva Oynisa Shabonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs tayanch doktoranti e-mail: niso-nur@mail.ru tel.: +998977245373

Annotatsiya: *Bu maqolada turk folkloridagi oshiq adabiyoti yo'nalishi, uning tarixi va ijrochilari haqida ma'lumot beriladi. Mashhur turk oshiqlari va ularning ijodi xususida fikrlar bayon qilingan. Oshiq adabiyotidagi maqol-termalar chuqur tahlil etilgan. Maqol-termalarning janr xususiyati, badiiyati, qofiya tizimi, vazni va ijrochilari haqida batafsil yoritilgan va keltirilgan fikrlar misollar bilan dalillangan. Maqol-termalarning boshqa turkiy tillarda uchrashi mumkin bo'lgan ehtimoliy variantlariga ham to'xtalangan.*

Kalit so'zlar: *oshiq adabiyoti, folklor, turkiy xalqlar, maqol, atasözü destani, Levniy, soz shoirlari, oshiqlar.*

Agar sizga bundan o'nlab asrlar avval siz uchun xabar qoldirilgan va bu xabarni bugun ham bilib olishingiz mumkin deyilsa, ishonarmidingiz? “Buncha vaqt ichida xabar qanday saqlanib qoladi?” degan fikr birinchilardan bo'lib xayolingizga kelishi tabiiy. Ammo shunday xabarlar bor. Hatto, siz-u biz ulardan bugun ham foydalanamiz. Bular – xalq maqollaridir. Ha, aynan xalq maqollari necha asrlar avval bizga ota-bobolarimiz tomonidan yuborilgan ixcham, hikmatga boy xabarlardir. Maqollar folklor janrlari orasida eng qadimiysi bo'lib, ular bizga ajdodlarimizning tafakkur evolyutsiyasi haqida axborot beradi. Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy ta'biri bilan aytsak, “Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko'rinadi”. Xalqning buyuk dahosini o'zida mujassam etgan bu kichik janrlarda ajdodlarimizning bizga aytmoqchi bo'lgan o'gitlarini anglash mumkin. Maqollar yordamida asrlar qa'ridan bobolarimizning bizga yo'llagan nasihat, tanbeh, hikmatlarini uqib olamiz. Eng ahamiyatli jihati – maqollar xalqning har bir vakiliga birday tegishli. Beshikdagi chaqaloqdan tortib, yuzni qoralab qo'ygan mo'ysafidlarimizgacha – hamma-hammaga mos va xos, “egasini topadigan” maqollar bobolarimiz tomonidan meros qilib qoldirilgan.

Maqollarning ba'zan otalar so'zi, bobolar so'zi deb yuritilishi ham bejiz emas. Turkiy tillarning o'g'uz lahjasida – turk, azarbayjon, turkman tillarida atalar sözü, atasözü²⁰, atalar sozi²¹ kabi terminlar maqol janrini ifodalaydi. Turk xalq adabiyotidagi maqollar o'zbek xalq maqollari bilan ko'p jihatdan umumiylik kasb etadi. Ularning o'zaro munosabatini “O'zbek va turk maqollarining tipologiyasi” maqolamizda batafsil

²⁰ Çobanoğlu Özkul. Türk Dünyası Ortak Atasözleri Sözlüğü. Ankara: AYK Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı, 2004. – B. 3.

²¹ Geldiyew Gurbandurdy, Altyyewlar Annamyrat Turkmen nakyllary we atalar sozi. Atatürk kültür merkezi yayınlari, İstanbul, 2002. – B. 5.

yoritib berganmiz²². Ushbu maqolada esa turk folklorining oshiq adabiyotidan o'rin olgan ajoyib hodisa – maqol dostonlari haqida so'z yuritmoqchimiz.

Dastlab turk oshiq adabiyoti xususida qisqacha fikrlamizni bayon qilishni lozim deb bildik. Oshiq adabiyoti turk xalq og'zaki ijodining bir yo'nalishi bo'lib, o'zbek adabiyotshunosligida bu yo'nalish hali o'rganilmagan. Hatto, internet nashrlarining o'zbek kontentida ham turk oshiq adabiyoti haqida Xurshid Davron saytidagi ayrim oshiqlar ijodini namunalarini hisobga olmasa²³, aytarli, ma'lumotlar uchramaydi. Turk oshiq adabiyoti soz shoirlari, oshiqlar yoki shoirlar deb yuritiluvchi xalq adabiyoti bilimdonlari repertuaridan tashkil topgan qadimgi turk baxshichilik an'alariga asoslangan yo'nalishdir. Xalq she'rlarini kuyga solib, soz jo'rligida ijro etuvchi, xalq hikoyalari (ya'ni dostonlar)ni aytuvchi ijrochilar turk folklorida, dastlab, ozan deb yuritilgan. XVI asarga kelib oshiq adabiyoti shakllangan va ozanlar endi oshiqlar yoki soz shoirlari deb yuritila boshlagan²⁴. Turk olimlari oshiq adabiyotining yuzaga kelishini bevosita O'rta Osiyoga borib taqalishini ko'p bora ta'kidlaydilar. Ayniqsa, yassaviylik tariqati va Ahmad Yassaviy ijodidan ta'sirlangan Yunus Emro, o'z navbatida, turk ozanlari (baxshilari)ga o'zgacha ta'sir ko'rsatgani alohida ta'kidlanadi²⁵. Aynan “âşik” terminining islomgacha bo'lgan “ozan” atamasi o'rnini egallashi va keng yoyilishi ham tasavvufiy qarashlar bilan bog'lanadi. Oshiq adabiyotining eng rivojlangan davri XIX asrga to'g'ri keladi. Oshiqlar ijrochiligi bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Xususan, Turkiya, Azarbayjon, Eron va Armanistonda yashab ijod qilayotgan oshiqlar hozirgi kunda mashhur. Turklarning Karajaog'lon, Dadalo'g'li, Summaniy, Seyroniy, Ruxsatiy, Deli Bo'ron, Oshiq Veysal, Mahsuni Sharif, Oshiq Rayhoni, Davut Sulariy, Burukli Qul Mustafo, Neshet Ertosh kabi oshiqlari xalq orasida tanilgan.

Oshiqlar xalq og'zaki ijodiga mansub qo'shiqlar, doston va hikoyalarni kuylash bilan birga, o'zlari ham she'rlar, qo'shiqlar ijod qilganlar va ularni soz jo'rligida kuylab berganlar. Ular she'rlarini barmoq vaznida, asosan, to'rtliklar shaklida ijod qilganlar.

Oshiq adabiyoti ko'shma, semâi, destan, varsaği, koçaklama, güzelleme, taşlama, ağıt, tekke²⁶ kabi bir qancha janrlarni o'z ichiga oladi.

Turk oshiq adabiyotidagi diqqatga sazovor an'analardan biri – “atalar sözü destanı”, ya'ni maqol-doston²⁷ aytish an'anasidir. “Atalar sözü destanı” she'rga solingan maqollardan iborat bo'lib, ular oshiq adabiyotida “doston” deb nomlanadi. Lekin an'anaviy dostonlar kabi syujetga ega emas, voqeabandlik kasb etmaydi. Aksincha, oddiy barmoq vaznidagi to'rtliklar shakli tuziladi va har bir to'rtlik tarkibida kamida

²² Xojiyeva O. O'zbek va turk maqollarining tipologiyasi. // O'ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV. Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. 2023-yil 20-may. Toshkent. B. 526.

²³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turk-xalq-oshiq-sheriyatidan-xurshid-davron-tarjimalari.html>

²⁴ Zekeriya Kaptan. Yasemin Yurduşen. Âşik Edebiyatı Halk Şiirinin Tarihsel Gelişim Süreci. Alevilik Araştırmaları Dergisi. 2014 / Yıl: 4 Sayı: 8. B. 197.

²⁵ Doç. Dr. Erman Artun. Aşık Geleneği ve Aşık Edebiyatı. Türk tarihi araştırmaları. B. 4.

²⁶ Kabaklı Ahmet. Aşık Edebiyatı. İstanbul : Türk Edebiyatı Vakfı. 2006. B. 27.

²⁷ Maqol-doston terminini shartli ravishda qo'lladik, aslida bu janr doston emas, termalarga ko'proq mos keladi.

bitta maqol qatnashadi. Ondokuz Mayis Universiteti dotsenti Jafer O'zdemir maqol-dostonlari haqidagi tadqiqotida ularning doston qatoriga qo'shilsa ham, asosan, nasihat qilish maqsadida yuzaga kelgan she'rlar ekanligiga urg'u beradi: "Destan turu icherisinde daha çok öğüt vermek maksadiyla oluřturulan bu řiirler "atalar sözü destanı" olarak adlandırılmaktadır"²⁸.

Maqol-dostonlarning eng qadimiy va eng go'zal namunasi sifatida Levniy yaratgan ijod namunasini o'rnak qilib ko'rsatishimiz mumkin:

Tut atalar sözü'n kalb-i selim ol
Gönülden gönüle yol var demiřler
Gider yavuzluğun tab-ı halim ol
Sert sirke kabına zarar demiřler...
Aldanma cihanın sakın varına
Aldanmayagör ah ü zarına
Bugünkü işini koyma yarına
Yar yıkıldıđı gün tozar demiřler...
Arzeyle bu pendi kendi özüne
Dost addetme her güleni yüzüne
İncinme dostunun doğru sözüne
Dođru söz insana batar demiřler...
Âdet-i Hak budur ezel ü ebed
Kul kula sebeptir ey dil-i nâşâd
Bâye gedâ hizmet etmekten murad
Bal tutan parmağın yalar demiřler...
Güneş balçıkla sıvanmaz ey dil
Bi-zaban da olsa bellidir kâmil
Kendüden gayriyi beğenmez cahil
Kendi çalar kendi oynar demiřler
Talib-i ma'rifet çekerse emek
Yüğrük at artırır yemiř giderek
Şaire ses ile saz u söz gerek
Yalnız taş olmaz duvar demiřler .

Levniyning maqol-dostonidan keltirilgan bu parchalardan ko'rishimiz mumkinki, oshiqqlar xalq maqollarini mohirona nazmga solib, maqollarning badiiy qiymatini, ohangdorligini yanada oshirgan. Buning ustiga, maqol-dostonlar kuyga solib ijro qilinganini ham hisobga olsak, ularning xalq qalbiga yetib borishi, ta'sirganligi ortganligiga amin bo'lamiz. Misralarda qo'llangan maqollarga e'tibor qilsak, ularning aksar qismi bugungi kunda turk folklorida ham, o'zbek folklorida ham u yoki bu ko'rinishda faol qo'llanib kelayotganiga guvoh bo'lamiz:

²⁸ Özdemir, C. Âşık Edebiyatında „Atalar Sözü Destanı“ Söyleme Geleneđi. Kesit Akademi Dergisi, 6 (25): 2020. B 225.

Bugünkü işini koyma yarına – Bugungi ishni ertaga qo'yma;
Dost addetme her güleni yüzüne – Har kulganni do'st bilma;
Doğru söz insana batar – To'g'ri so'z tuqqaningga yoqmaydi;
Bal tutan parmağın yalar – Bol tutgan barmog'ini yalar;
Güneş balçıkla sıvanmaz – Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi;
Yalnız taş olmaz duvar – Yolg'iz otning changi chiqmaydi.

Jafer O'zdemir “Âşık Edebiyatında ‚Atalar Sözü Destanı‘ Söyleme Geleneği” maqolasida Levniyning maqol-dostonida qo'llanilgan, zamonaviy turk xalq adabiyotida muqobili bo'lgan 41 ta maqolni hamda hozirda qo'llanilmaydigan 3 ta maqolni sanab o'tadi²⁹. Shuningdek, olim maqol-dostoni aytish an'anasini Levniydan keyingi davomchilarini ham sanab o'tadi: “Levni'den sonra bu tarz şiirler yazan/söyleyen şairlerin en önemlileri Şikârî, Tâlibî, Mir'atî, Mevcî, Havayî, Hakî, Lutfî, Refikî, Figani, Yesarî, Dervîşî, 'dir.”³⁰.

Kötü günde beraberdir dost düşman
Kazanırsan bari yine dost kazan
Bin dostun olsa da güvenme ey can
Bin dosttan çoktur bir düşman demişler...
Kula boş taklık ne yola gel yola
Ulü-l-emre itaat et mutlaka
Baş başa bağlıdır baş padişaha
Sürüye lazımdır çoban demişler...
Eğer âkil isen dinle bu pendi
Kendine edersin hileyi fendi
Eğri otur doğru söyle effendi
Boş torbaya gelmez kolan demişler
Her zaman tedbirin takdire uymaz
Arayan sanma kim arzusun bulmaz
Yâr engelsiz gül de dikensiz olmazBülbüle verilmiş figan demişler³¹...
(Kalçelikli Mirati)

Kalçelikli Mirati repertuaridan o'rin olgan bu parchada bir qancha xaql maqollari va deyimlari yuksak badiiyat bilan nazmga tizilgan. Bir duşman bin dosttan çok (Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta ko'lsa ham ko'p), Sürüye çoban lazım (Suruvga cho'pon kerak), Eğri otur, doğru söyle (Egri o'tirsang ham, to'g'ri so'zla), Gül dikensiz olmaz (Gulning tikoni bor) kabi maqollar vazn va qofiya talabi bilan biroz o'zgargan bo'lsa ham, asl mazmuni saqlab qolingan.

Barcha maqol-dostonlari xalqona 6+5 turoqli, 11 bo'ginli barmoq vaznida, to'rtlik shaklida yozilgan. Qofiyalanishi – a-a-a-b, c-c-c-b, d-d-d-b shaklida. Hamma maqol-dostonlarda “demişler”, “diyorlar” so'zlari radif bo'lib takrorlanib kelgan:

²⁹ Özdemir, C. Âşık Edebiyatında ‚Atalar Sözü Destanı‘ Söyleme Geleneği. Kesit Akademi Dergisi, 6 (25): 2020. B 229 – 230.

³⁰ Özdemir, C. Âşık Edebiyatında ‚Atalar Sözü Destanı‘ Söyleme Geleneği. Kesit Akademi Dergisi, 6 (25): 2020. B 227.

³¹ [Atasözleri Destanı Şiiri - Kalecikli Mirati \(antoloji.com\)](http://Antoloji.com)

Yükseklerden uçma dengin ara bul	a
Yorganına göre ayağın kösül	a
Sevmeyenin şahı sevene kul ol	a
Budur akıl için mizan demişler	b

(Kalecikli Mirati)

She'rdan "Ko'rpangga qarab oyoq uzat" maqoli o'rin olgan.

Toprağı işleyen çok ürün alır	c
-------------------------------	---

Tembelin işleri geriye kalır	c
------------------------------	---

Geniş günün bir gün darlığı olur	c
----------------------------------	---

Her şey sırasıyla gelir demişler.	b
-----------------------------------	---

(Şair Şükranı)

Bu misralarda "Her şey sırasıyla gelir" maqoli ifodalangan. O'zbek tilida bu maqolning "Tegirmon navbati bilan" muqobili mavjud.

Fırsat ele geçse üzmesi onu	d
-----------------------------	---

Görüldüğü yerde ezmeli onu	d
----------------------------	---

Aklın kirişine yazmalı onu	d
----------------------------	---

Dost olamaz eski düşman diyorlar.	b
-----------------------------------	---

(Celil Çınkır)

Celil Çınkırding bu to'rtligida "Fırsatı ele geçirmek" (Fursatni qo'ldan chiqarmaslik) iborasi va "Eski duşman dost olmaz" maqollari o'z ifodasini topgan.

Yana shuni ta'kidlashimiz kerakki, maqol-dostonlarda nafaqat maqollar, balki turkcha deyim – iboralar ham uchraydi. Buni turk folklorida yaqin-yaqingacha maqol va iboralarning bir-biridan ajratilmagani bilan izohlashimiz mumkin. Masalan,

Kûy-ı dilârâya eylersen akın

Zinhar gâfil olma etrafa bakın

Karda yürü izin bildirme sakın

İl oğlu ariftir duyar demişler

(Levniy)

Misralarda "Karda gezip izini belli etmemek" iborasi yordamida nozik ma'noli o'git bayon qilingan. Bu ibora "Qilgan qing'ir ishini hech kim sezmaydigan darajada ustalik bilan amalga oshirish"³² degan mazmuni ifodalaydi. Bu iboraning o'zbek tilida ham varianti mavjud bo'lib, ayni ma'noda ishlatiladi.

Turk folkloridagi maqol-dostonlarni tahlil qilarkan, o'zbek xalq og'zaki ijodida ham yondosh hodisalarning bor yoki yo'qligiga qiziqdik. Afsuski, maqollar uchun maxsus to'qilgan termalar yoki xalq qo'shiqlarini uchratmadik. Lekin bu xalq qo'shiqlarida maqollar janri uchramaydi, degani emas. Dostonlarning nazmiy qismida maqollar vazn va qofiya talabi bilan shaklan o'zgarishlarga uchrab kelishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, baxshilarimiz xalq qo'shiqlarida, termalarda ham maqollardan o'rinli foydalanishgan:

³² Ömer Asım Aksoy. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. 2 / Deyimler Sözlüğü. İstanbul: İnkilap Kitabevi. 2020. B. 911.

O'lanlarning avval boshi tomon toshi
To'y oldidan torttirganim so'qim oshi
Hadding bo'lsa, qani kelib o'lan boshla
Bu elatning manman degan keksa-yoshi!
Baland-baland tog'larning qori bo'lar
O'ngirida burgut, lochin, sori bo'lar.
O'lanchilar manmansirab kerilmaydi,
Er og'asi mard yigitning ori bo'lar.
Bulut bo'lsa, kun chiqmay ham kiradi kech
Daryo, soyni ko'rib, keyin etikni yech
Yigirmaga kirgan bo'yim darxon dersan
Ko'sa kishi qariganin bilmaydi hech³³
yoki
Oting yomon bo'lsa, armoning ketar,
O'g'ling yomon bo'lsa, darmoning ketar,
Xotining yomon bo'lsa, mehmoning ketar,
Bu uchov duch kelmas, sho'ring bo'lmasa.

Fozil shoir repertuaridagi "Bo'lmasa" radifli termasidan o'rin olgan yuqoridagi bandning to'rtinchi misrasi olib tashlansa, u xalq maqollaridan iborat bo'lib qoladi. Bu parchada yigit kishining oti, o'g'li, xotini hayotida muhim o'ringa ega ekanligi, uchalasi uning obro'si, oriyati va g'ururi ekani maqol shaklida ifodalangan. I. Tursunovning termalar tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotida 118 misrali xalq termalarining birida 50 dan ortiq xalq maqollarining qo'llanishini kuzatish mumkinligi aytib o'tiladi³⁴.

Maqollarning boshqa qardosh xalqlar termalaridan munosib o'rin olganini ham aytib o'tishimiz lozim. Masalan, qirg'iz xalq og'zaki ijodida shu kabi sanat-nasihat va terma qo'shiqlari mavjud:

Жакшы кызга жаман кыз,
Багы менен теңелет.
Жакшы эрге жаман эр,
Жакшы атка жаман ат,
Жалы менен теңелет.

(Ma'nosi: Yaxshi qizga yomon qiz baxti bilan tenglashar, yaxshi erga yomon er moli bilan tenglashar, yaxshi otga yomon ot yoli bilan tenglashar)³⁵.

Modomiki, o'zbek folklorida maqol-termalar turk xalq adabiyotidagi atasözü destanlari qadar ko'p emas, turk adabiyotidagi maqol-termalarni o'zbek tiliga tarjima qilib, baxshilarimiz e'tiboriga haxola qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, maqol-termalar hanuzgacha turk baxshilari tomonidan yakka tartibda yoki jo'rlikda ijro etib

³³ Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Қўшиқлар: Гүлёр. Фарғона халқ қўшиқлари. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. 1967, Б. 25.

³⁴ Турсунов И.Н. Халқ термаларининг тарихий асослари ва бадиияти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.– Б. 13.

³⁵ Темирова М. А. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.– Б. 109 – 110.

kelinmoqda³⁶. Ularni o'rganish, tahlil, tadqiq va tarjima qilib xalqimizga taqdim qilish folklorshunoslarimiz oldida turgan muhim vazifalardan bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Çobanoğlu Özkul. Türk Dünyası Ortak Atasözleri Sözlüğü. Ankara: AYK Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı, 2004. – B. 3.
2. Geldiyew Gurbandurdy, Altyyewlar Annamyrat Turkmen nakyllary we atalar sozi. Atatürk kültür merkezi yayınlari, İstanbul, 2002. – B. 5.
3. Xojiyeva O. O'zbek va turk maqollarining tipologiyasi. O'zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv. Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. 2023-yil 20-may. Toshkent. B. 526.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turk-xalq-oshiq-sheriyatidan-xurshid-davron-tarjimalari.html>
5. Zekeriya Kaptan. Yasemin Yurduşen. Âşık Edebiyatı Halk Şiirinin Tarihsel Gelişim Süreci. Alevilik Araştırmaları Dergisi. 2014 / Yıl: 4 Sayı: 8. B. 197.
6. Doç. Dr. Erman Artun. Aşıklık Geleneği ve Aşık Edebiyatı. Türk tarihi araştırmaları. B. 4.
7. Kabaklı Ahmet. Aşık Edebiyatı. İstanbul: Türk Edebiyatı Vakfı. 2006. B. 27.
8. Özdemir, C. Âşık Edebiyatında ‚Atalar Sözü Destanı‘ Söyleme Geleneği. Kesit Akademi Dergisi, 6 (25): 2020. B 225.¹
9. Prof. Dr. Abdurrahman Güzel, Prof. Dr. Ali Torun. Türk Halk Edebiyatı El Kitabı. Ankara: Akçağ Yayınları. 2003. B. 142 – 143.
10. Özdemir, C. Âşık Edebiyatında ‚Atalar Sözü Destanı‘ Söyleme Geleneği. Kesit Akademi Dergisi, 6 (25): 2020. B 229 – 230.
11. Özdemir, C. Âşık Edebiyatında ‚Atalar Sözü Destanı‘ Söyleme Geleneği. Kesit Akademi Dergisi, 6 (25): 2020. B 227.
12. Ömer Asım Aksoy. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. 2 / Deyimler Sözlüğü. İstanbul: İnkilap Kitabevi. 2020. B. 911.
13. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Кўшиқлар: Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. 1967, Б. 25.
14. Турсунов И.Н. Халқ термаларининг тарихий асослари ва бадиияти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.– Б. 13.
15. Темирова М. А. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.– Б. 109 – 110.
16. <https://www.youtube.com/watch?v=VZbc7Qhz30s>
17. Atasözleri Destanı Şiiri - Kalecikli Mirati (antoloji.com)

³⁶ <https://www.youtube.com/watch?v=VZbc7Qhz30s>